


O'zDSMIda "Oriyat" spektakli namoyish etildi



Teatr inson taqdiri va uning kechinmalari jonli tarzda ko'rsatib beriladigan sahna ekan, unda aktyorlar xuddi hayotdagidek yashaydi, drammatizm ichida o'zaro harakatlanadi. Mamlakatimizda teatr san'ati taraqqiyotiga yanada katta hissa qo'shish maqsadida ulkan qadamlar bosilmoqda. Shunday muhim bir davrda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatrida "Talaba-yoshlar ijodiyoti" ko'rik-festivali doirasida "Teatr san'ati" fakulteti "Musiqali teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalarining "Oriyat" nomli ikki pardali musiqali dramasi namoyish etildi. Muallif va kursning badiiy rahbari Nasrullo Qobil, postanovkachi rejissyor Farhod Farmonov, sahna nutqi o'qituvchisi Ramziddin Qodirov, rassom Alisher To'laboyev jonli spektaklni havola etishdi.

Urush va ocharchilik yillarining qahrli alamlari, hayot sinovlarining inson bardoshini chig'iriqdan o'tkazishi,

adolat va baxt haqidagi asarda Dostonbek Zohidjonov, Zuhra O'rinboeva, Javlon Xatamov, Ilyosxon Ibrohimov, Faxriyor Rizvonov, Laylo Shorasulova, Muzaffar Ne'matov va boshqa kursning mahoratli talabalari o'ziga xos rollarni ijro etishdi.



Personajlar xarakteriga monand jonli ariyalar kuylanib, tomoshabinlarni hayratga soldi. Spektakldagi jonli raqslar va xor ashulalari ham asar badiiy qiymatini ochib berdi. Bunda dirijyor Akmal To'rayev, xormeyster Olimjon Komiljonov, raqs o'qituvchisi Olga Antolyeva, vokal o'qituvchilar Baxrullo Lutfullayev, Sherzod Pirmatov, Azamat Sharipov, Rudakiy Allanboyev, Dilmurod Uzoqov kabilar o'z ishiga professional tarzda yondashishgan.

“Oriyat” spektakli haqiqatan, “Talaba-yoshlar ijodiyoti”

festivali dasturi va talabiga muvofiq musiqali drama teatr aktyorligi yo'nalishi talabalarining to'rt yillik olgan bilimlari va mahoratlarini sahnaga olib chiqa oldi. Ayniqsa, musiqaviy notalarning dramadagi jarangi, aktyorlar holat va vaziyatlarni his eta bilishi, konflikt va to'qnashuvlarning kuchli ifodalanganligi asar g'oyasini ochib berdi.



Ko'rik festival mobaynida institut Yoshlar ittifoqi yetakchilari Bobur Ubaydullayev boshchiligida faol

bo'lishmoqda. Turli uchrashuvlar, tadbirlar va mahorat darslari o'tkazilib, kitobxonlik sayllari davom etmoqda. Ijodkor yoshlarga omadlar tilab qolamiz!

Dostonbek RAHMATULLAYEV

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistranti